“Haydar Aliyev va zamonaviy turkiy dunyo” mavzusidagi xalqaro konferensiya

Bugun O’zbekiston Fanlar akademiyasi vitse-prezidenti Sirojiddin Mirzayev Boku shahrida Haydar Aliyev tavalludining 100 yilligiga bag‘ishlangan “Haydar Aliyev va zamonaviy turkiy dunyo” mavzusidagi xalqaro konferensiyada ishtirok etdi. Anjumanda dunyoning turli davlatlaridan davlat arboblari, olimlar ishtirok etmoqda. Haydar Aliyev uzoq vaqt davomida Janubiy Kavkazda eng nufuzli shaxs bo‘lgan va O‘zbekiston-Ozarbayjon munosabatlari rivojiga beqiyos hissa qo‘shgan.